



BOSH KIYIMLARINING TARIXI VA BUGUNI

Boltayeva Iqbol Baxrom qizi
Ergashev Azizbek Sherzod o`g`li

Termiz davlat unuversiteti
Azizbekergashov61@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20711732>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil
Ma`qullandi: 14-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 16-iyun 2026 yil

KEYWORDS

Dunyo, bosh kiyimlarining tarixi, o`zbek milliy bosh kiyimlari, dizayn, naqsh, rang uyg`unligi, do`ppi, yuz shakllari.

ABSTRACT

Dunyo xalqlarining kelib chiqishi tarixida har bir xalq va millatning o`z milliy kiyimlari va ularning turlari mavjud bo`lib shu maqolamizda aynan O`zbek milliy bosh kiyimlarining qisqacha tarixi va bugungi kunda do`ppilar turlarini va tikilish texnikasini saqlab qolish, kelgusi avlodlarga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Bugun milliylikimizni qaytadan tiklash maqsadida qator ishlar olib borilmoqda. Milliy kiyimlarimizni kiyish orqali yana o`zligimizga qaytmoqdamiz.

O`zbek milliy bosh kiyimlarining bugungi kunda tarixi, bichimlari, shakllari naqsh va ramzlari haqida yosh dizaynerlarga Termiz davlat universitetida taqsim olayotgan Dizayn – (milliy kostyum) yo`nalishi talabalarida Kashtachilik, Kostyum Dizayni, Milliy kostyumni loyihalash fanlari va “Kreativlik” nomli to`garaklarda milliy bosh kiyimlarimiz va ularning tikilish texnikasi o`rgatilib kelinmoqda.

Bosh kiyim nima? U qanday tarixga ega? Bugungi kungacha qay darajada saqlanib o`rgatilib kelinmoqda degan qator savollarga javob izlaymiz.

Bosh kiyim tavsifi: Bosh kiyim libosni boshqa qismlariga nisbatan kostyumning ijtimoiy va estetik qiymatini ifolaydi. Unda kostyumga xos ma`naviy – etik qoidalari amalga oshiriladi. Shuning uchun tizim sifatida kostyumni bosh kiyimsiz tasavvur etish mumkin emas.


Zamonaviy kostyum tarixiy kostyumga nisbatan funksional-ergonomik va estetik talablarga javob beradigan oddiy shakl va konstruktiv yechimga ega. Bosh kiyim kostyum shaklga bo`ysunadi, ayrim holatlarda esa yetakchi bo`lishi mumkin.

Zamonaviy kostyum tarixiy zaxirasidan bosh kiyimning bir necha turlarini o`zlashtirgan, ularning hajmiy-fazoviy tarkibi kostyum shaklining asosiy qismini yakunlaydi.

Do`ppi - bosh kiyimi. Qadimdan [eroniy](#) va [turkiy xalqlar](#) orasida keng tarqalgan. [Turkiston](#) xalqlari orasida (ayniqsa [O`zbekiston](#) va [Tojikiston](#) hududida) milliy kiyim turiga aylangan. Boshqa xalqlar do`ppilaridan o`zbek do`ppilari o`ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi. Do`ppi uch qismdan – tepa (aylana va to`rtburchak shaklida bichiladi), kizak ([gardish](#) shaklida) va [jiyakdan](#) tuzilgan, O`zbekistonning turli joylarida turlicha bezatiladi; qismlari birlashtirilganda turlicha ko`rinishga ega bo`ladi. Do`ppi tikuvchi usta do`ppido`z, do`ppi tikish kasbi esa [do`ppido`zlik](#) deb ataladi.




1-rasm.O'zbek milliy do'ppilari





2-rasm. Milliy do'ppi naqshlari va ularning turlari

Bosh kiyimlar asosan kishining bosh va yuz shakliga qarab bugungi kunda tanlanadi va kiyiladi.



3-rasm. Bosh kiyimini tashlash uchun yuz shakllari

O'zbek milliy bosh kiyimlarining bir necha yuzlab xillari mavjud hisoblanadi. O'zbek milliy do'ppilarini tarixi va xillarini yo'qolib ketmasligi uchun bugungi kunda ularning ko'plab xillari uy muzeylarda va davlat muzeylarida saqlanib kelinmoqda.

Milliy bosh kiyimimiz va unga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish va saqlab qolish maqsadida universitetimiz qoshida Dizayn ta'limi o'nalishi talabalalari uchun maxsus fanlar

kesimida va turli ijodiy to'garaklar asossida do'pchilik namunalari va tikish sizlari muntazam o'rgatilib kelinmoqda.



4-rasm. Terdu-Dizayn talabalarining bosh kiyimini tayyorlash jarayoni

Xulosa: Joriy yil kesimida ham dizayn ta'limy o'nalishi uchun "Kostyum dizayni: fani asosida ayollar va erkaklar milliy bosh kiyimlarini tikish va bezatish jarayonlari olib borildi. Turli bichim va shaklga ega bo'lgan bosh kiyim namunalari o'rgatilib, bezash ishlari va jarayondagi qator kichik sirlari o'rgatildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad talabalar ya'ni yosh dizaynerlarga yaratayotgan kolleksiyalarida milliy bosh kiyimlarini ham qo'llash tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.Зелинг. ВеК модельеров. 1900-1999.- Штутгарт, 2000.
2. G.K.Хасанбайева. Kostyum dizayni. Darslik – Т.: ТТYESI, 2013. – 247 б.
3. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция Костюма. - М.: Академия, 2003.-430 с.
4. <http://ziyonet.uz/uzc/library/libid/30500/tn/typeid/tv/56/>
5. <http://www.ziyonet.uz/uzc/library/libid/30500>
6. <http://ziyonet.uz/uzc/library/libid/30507>
1. <http://titli.uz/index.php/uz/axborotresurslari/qollanma.html>